

ZAMONAVIY KASTYUMDA USLUBIY YECHIMLARNI TAXLILI

Toshloq tumani 2-son politexnikumi

“Maxsus fanlar” kafedrası o’qtuvchisi

XOSHIMOVA ZULFIYA KAMILOVNA

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy kostyumlarda qo’llanilayotgan uslubiy yechimlar, ularning konstruktiv va badiiy xususiyatlari, shuningdek, kiyim dizaynidagi zamonaviy tendensiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, kostyumdagi funksional va estetik muvozanat, modaning dinamikasi va jamoatchilik ehtiyojlariga moslashuv holati yoritilgan.

Kalit so’zlar: Kostyum dizayni, uslub, moda, shakl, silueta, material, detal, zamonaviy kiyim, ergonomika.

Zamonaviy kiyim dizaynida, xususan kostyumlarda, uslubiy yechimlar insonning ijtimoiy mavqei, zamon talablari, ergonomik qulaylik va estetik go’zallikni uyg’unlashtirishga xizmat qiladi. XXI asr modasida kostyum nafaqat rasmiy kiyim, balki shaxsiy uslub ifodachisi sifatida ham keng talqin qilinmoqda. San’atda uslub asosiy tushunchalarnidan biri bo’lib, vaqt mobaynida va jamiyatda kostyum evolyutsiyasi bilan bog’liq. Davr uslubi, tarixiy kostyum uslubi, moda uslubi, dizayner uslubi, firma uslubi tushunchalar ham uchraydi.

Uslub – badiiy fikrlashning eng umumiy kategoriyasi; san’atda muayyan davr yoki asarning tasviriy vositalarning g’oyaviy birligi; buyum muhitining badiiy-plastik o’xshashligi. Uslubda har bir davrni dunyoqarashlar, g’oya va qarashlari aks etiladi. Uslub – davrning badiiy tili, davrning badiiy ifodasi. Unda muayyan tarixiy davrning estetik ideali namoyon bo’ladi. Uslub barcha san’at turlariga o’zgacha ta’sir etadi, uni “davrning katta badiiy uslubi” deb atashadi. San’at tarixida davrga mansub “katta uslublar” birin ketin bo’lgan: Qadimiy Misr, Antik, Roman, Gotik, Renessans, Uyg’onish, Barokko, Rokoko, Klassitsizm, Ampir, Modern. Ushbu uslublar kostyum turini, shaklini, proporsiyalarini, qo’llagan matolarini, kiyish usulini va h.k. belgilagan.

Har bir uslub rivojlanish jarayonida bir necha bosqichlardan iborat.

Paydo bo'lishi, avjga yetishi, inqirozga uchrashi. Shuni e'tiborga olish lozimki, har bir davrda bir necha uslublar birgalikda mavjud bo'lgan: oldin bo'lgan, ayni shu vaqtda xukumronlik qilgan va kelajak uslubning elementlari. Har bir mamlakatda badiiy madaniyati rivojlanish darajasi, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, boshqa mamlakatlar madaniyati bilan aloqaligi bilan bog'liq badiiy uslublarni evolyutsiya dinamikasi o'ziga xos bo'lgan: masalan, XV asrda Italiyada Renessans uslubi avjga chiqqan bo'lsa, Frantsiyada - kech Gotika, Germaniyada esa - Gotika XVI asrni o'rtasigacha bo'lgan, O'rta Osiyoda esa - Renessans uslubi IX asrdan boshlab to XVII asrga qadar rivojlangan.

“Katta uslub” doirasida “mikrouslublar” rivojlanishi mumkin. Masalan, Rokoko uslubi doirasida (1730-1750 yy.) “shinuazri” (xitoy uslubiga o'xshash) va “tyurkeri” (turkcha uslub); modern uslubi doirasida (1890-1900 yy.) “neogotika”, “neorus” va geometrik uslublari; “art deko” uslubda (1920 yy.), Misr, rus, afrika, geometrik va b. mikrouslublar mavjud bo'lgan.



1-rasm. Katta uslublardagi modellar

Ammo, tarixiy davrlar o'tishi bilan “katta uslub”lar o'tmishda qoldi: jamoa va insonni turmush sur'ati tezlashishi, informatsion jarayonlarni rivojlanishi, yangi texnologiyalar va ommabop bozorni ta'siri, yagona uslubga emas, balki ko'p uslubiy shakllar va plastik siymolarni mavjud bo'lishiga olib keldi.

XIX asrda ilgari bo'lgan uslublarga asoslangan uslubiy yo'nalishlar paydo bo'la boshladi (eklektizm, o'tmishga berilish va b.). Eklektika – bu har xil uslublarni aralashmasi, bir necha uslubni baravariga mavjudligi. XX asrda eklektika madaniyatini

muhim xususiyatlaridan biri bo'ldi, ayniqsa asrni oxirida – postmodernizm madaniyati modaga ta'sir etgandi.

XX asrda “katta uslub”larni o'rniga san'atda avangard san'atni innovatsion mohiyati bilan bog'liq yangi kontseptsiyalar keldi: abstraktsionizm, funktsionalizm, syurrealizm, pop-art, op-art va h.k. Modada har bir o'n yillikda “mikrouslub”lar mavjud bo'lgan: 1910 yy. - neo-grek va sharq uslubi; 1920 yy.- rus, misr, lotinamerika, afrika; 1930 yy.- neoklassitsizm, o'tmishga berilish, lotinamerika, syurrealizm; 1940 yy.- kantri, vestern; 1950 yy.- N yu Luk, Shanel ; 1960 yy. – kosmik; 1970 yy. romantik, retro, fol k, etnik, sport, djins, diffuz, militari, ichki kiyim, disko, safari, pank; 1980 yy. – ekologik, yangi qaroqchilar, neoklassik, neobarokko, seksi, korset; 1990 yy. – granj, etnik, neo-pank, kiberpank, glamur, o'tmishga berilish, neo-xippi, minimalizm, dekonstruktivizm va boshqalar.

Har bir mavsumiy nashrlar yangi uslublarni targ'ibot etadi, dizaynerlar esa o'z uslubini yaratishga intilishadi. Ammo, barcha uslublar tasodifiy paydo bo'lmaydi. Siyosiy voqealar, ijtimoiy muammolar va b. uslubni shakllanishiga ta'sir etib, uni aktual qiladi. Modali uslublarda insonning siymosi va turmush tarzini o'zgarishi hozirgi zamonda uni o'rni va va roli bo'yicha tasavvuri ifodalanadi. Yangi uslublarni paydo bo'lishiga yangi materiallar va ularga ishlov berish usullari ta'sir etadi.

Ko'p uslublar orasida klassik uslubni ajratish mumkin: ular uzoq vaqt davomida aktualigini saqlab, modada bo'ladi. Klassik uslub muayyan xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin: universallik, ko'pfunktsiyalik, shakl yaxlitligi va oddiyliigi, odamni talablarini qondiradigan. Klassik uslubga, masalan, ingliz, Shanel uslublari kirishi mumkin.

“Katta badiiy uslub”lar va “mikrouslub”lardan tashqari “muallif uslubi” yoki “ustaning individual uslubi” degan tushunchalar bor. Bu uslub turida muallifning mavzulari, g'oyalari, qo'llagan tasviriy vositalari va badiiy usullari namoyon etiladi. K.Shanel , K.Dior, A.Kurrej, Dj.Versache, K.Lakrua, V.Zaytsev, V.Yudashkin va b. ijodi muallif uslubi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy buyum muhitni badiiy-plastik bir xilligi “dizayn-uslub” deb ataladi. Bu uslub texnikaviy taraqqiyotni o’zlashtirish natijasini namoyon etadi. U yangi mato va texnologiyalar bilan bog’liq bo’lib, buyumlarni tashqi ko’rinishini faqat o’zgartirmasdan, insonni hayotiga yangi xossalarni baxsh etadi va buyum va insonni o’zaro aloqasiga ta’sir etadi.

Zamonaviy kostyum dizaynidagi asosiy tendensiyalar

So’nggi yillarda kostyumlar dizaynida quyidagi tendensiyalar kuzatilmoqda:

- Minimalizm - soddalik, toza chiziqlar, kam bezakli va pastel ranglar.
- Oversize shakllar - keng yelkaliklar, bo’sh siluetlar.
- Uniseks uslub - ayollar va erkaklar uchun o’xshash dizayn va shakl.
- Kombinatsiyalangan materiallar - jun va charm, denim va atlas kabi turli materiallarning uyg’unligi.
- Texnik matolar - nafas oladigan, burishmaydigan, suv o’tkazmaydigan materiallar.

Kostyumda ishlatiladigan tugmalar, tikuv usullari, yoqalar, yenglar, cho’ntaklar kabi detallar uslubiy yechimni belgilovchi muhim elementlardir. Ayniqsa, ayollar kostyumlarida bezakli tikuvlar, aplikatsiyalar va metall detallar ko’proq ishlatilmoqda.



2-rasm Zamonaviy kastyum tuzilishi.

Zamonaviy kostyum dizaynida milliy ana’analarni o’zlashtirish o’ziga xos xususiyatlari postmodernizm, jumladan *iqtibos* (sitata) uslubi (o’zgartirmasdan kostyum qismlarini o’zlashtirish va modelda har xil ijodiy manbalardan elementlarni

aralashtirish) bilan bog‘liq. Iqtibos sifatida milliy kostyumning detali, bezak elementi, naqshi, bichimi yoki rang gammasi bo‘lishi mumkin. Har xil iqtiboslarni kombinatsiyalab, turli xalqlarning kostyum elementlarini aralashtirib, dizayner 1970 yillarga o‘xshash aniq va taniqli ijodiy manba bilan bog‘liq bo‘lmagan mutlaqo yangi siymoni yaratdi. Jan-Pol Gote, Dj.Galyano, R. Djili etnik mavzulari bo‘yicha o‘z modellarini aynan shunday yaratishadi.

Kostyum modellashda milliy kostyumning bichimini o‘zlashtirish mahsus sohadir. Etnik uslub allaqachon jahon xalqlarining kostyum shaklini zamonaviy kostyumga moslashtirdi.

Xulosa. Zamonaviy kostyum dizayni hozirgi kunda nafaqat tashqi ko‘rinish, balki insonning individualligini namoyon etuvchi, uning didi, kasbi va jamiyatdagi o‘rnini aks ettiruvchi muhim kiyim turi sifatida rivojlanmoqda. Kostyumlarning shakl, siluet, rang va mato tanlovi xilma-xilligi zamonaviy moda sanoatida yangi uslubiy yechimlarning paydo bo‘lishiga imkon yaratmoqda. Ayniqsa, klassik va oversize siluetlar, minimalistik va retro uslublarning uyg‘unligi, ekologik toza va yuqori texnologik materiallardan foydalanish sohaning innovatsion rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda.

Shuningdek, detallar va aksessuarlarning to‘g‘ri tanlanishi, dekorativ elementlar bilan boyitilishi orqali har bir kostyum o‘ziga xos, zamonaviy va estetik obraz hosil qiladi. Bu esa nafaqat kundalik kiyinish madaniyatida, balki ishbilarmonlik, marosim va ijodiy sohalarda ham kostyumga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda.

Kelgusida zamonaviy kostyum dizaynida funksionallik, qulaylik, ekologiya va estetikaning uyg‘unligi asosiy yo‘nalish bo‘lib qoladi. Dizaynerlar va moda mutaxassislari esa yangi texnologiyalar va kreativ g‘oyalar orqali bu sohani yanada rivojlantirishda davom etadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘XATI

1. Xasanbayeva G.K. “Kostyum dizayni”. Study guide. – T.: Iqtisodiyot – Moliya, 2013.

2. “Keng assortimentdagi kiyimlarni loyihalash va modellash” M.Z.Murtazoyev, J.Hamidov, G.M.Axmedova, M.E.Eshonqulova. Textbook. T. 2012.
3. “Entering the fashion industry” https://www.amazon.com/Path-Become-Professional-Model-Industry-book/dp/B09QFYLN2/ref=sr_1_3?crid=3P74LXDBM9DKT&keywords=Entering+the+fashion+industry&qid=1658555103&srefix=entering+the+fashion+industry%2Caps%2C262&sr=8-3

INTERNET SAYTLARI

1. <https://www.belhard.com/ru/equipment/legprom/morgan2>.
2. <https://www.pokroyka.ru/obrabotka-izdelij/obrabotka-bortovizdeliya-podbortami>
3. <http://ziyonet.uz>.
4. www.textil-press.ru.